

QURILISH IQTISODIYOTIDA RAQAMLI BOSHQARISHNING AN'ANAVIY BOSHQARISHDAN AFZALLIKLARI.

Buranov O.B.-
SamDAQI dotsenti,

Fayziyeva M.-
SamDAQI magistri.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning qurilish iqtisodiyotida boshqaruvning an'anaviy va raqamli davrlardagi farqlari va ularning osish dinamikasi hamda raqamlashtirishning avzallikkleri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qurilish, boshqaruv, an'anaviy iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyor, tahlil.

Аннотация. В данной статье рассматриваются отличия традиционной экономики от цифровой экономики в управление строительства, динамика их роста и преимущества цифровизации.

Ключевые слова: строительство, управление, традиционная экономика, цифровая экономика, анализ.

Abstract. This article discusses the differences between the traditional economy and the digital economy in construction management, the dynamics of their growth and the benefits of digitalization.

Key words: construction, management, traditional economy, digital economy, analysis.

Xalq xo'jaligining boshqa sohalari qatorida qurilish sohasiga ham raqamlashtirish tushunchasi jadallik bilan kirib kela boshladi. Dastlab qurilish sohalarini avtomatlashtirish ishlarni 1980 yillardan boshlab yuborilgan edi. Bu ishlar natijasida avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining paydo bolishiga olib keldi va qurilish iqtisodiyotiba boshqaruv jarayonlari rivojlanishiga turtki bo'ldi. Dastlabki engilliklar hujjatlashtirish sohasida qo'llanila boshlandi. Bu o'zgarishlar dastlab bank sohasida 1995 yillardan boshlab electron hujjatlar aylanishi va naqd pulsiz to'lovlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu albatta raqamlashtirish va raqamli iqtisodiyot sari dastlabki qadam bo'ldi. Raqamli iqtisodiyotning birinchi tamal toshini buyuk bobomiz Musa Muxammad al-Xarozmiy sanoq tizimlarini yaratish orqali qoygan bo'lsa, 1996 yil SNG davlatlari ichida O'zbekiston birichi bo'lib naqd pulshiz to'lovlarga o'tish orqali raqamli iqtisodiyotga birinchi qadamini qo'ygan edi.

Agarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi shartli ravishda 1995 yildan bosh langan deb qabul qilsak, u holda uning quyidagi bosqichlari borligini qayd qilishimiz mumkin [2]:

1995-2005 yillar: Raqamli iqtisodiyotning vujudga kelish davri bo'lib, bu davr to'rt qismdan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin - dotkomlar davri, yangi elektron xizmatlar ko'rsatish bozorlarining rivojlanishi, elektron biznesning yuzaga kelishi va elektron tijorat.

2005-2010 yillar: Raqamli iqtisodiyotning o'sish davri - bu davrda elektron xizmat ko'rsatish boshlandi va yangi xildagi elektron mahsulotlar yaratildi.


2010-2015 yillar: Raqamlı iqtisodiyotning yetilish davri bo'lib, unda onlayn imkoniyatlar yuzaga keldi va raqamlı texnologiyalar an'anaviy biznesga ham asta - sekinlik bilan kirib kela boshladi.

2015-2020 yillar: Raqamlı texnologiyalarning kutilmagan sohalarga kirib kelishi va an'anaviy biznes modellarning transformatsiyasi hamda bir qancha yangi elektron biznes modellarining paydo bo'lishi.

2020-2030 yillar: Raqamlı texnologiyalarning tizimli transformatsiyasi amalga oshirilishi, ya'ni, raqamlashtirishni tizimli yondoshuv asosida amalga oshirib, ularni kriptotizimlarga suyangan holda sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish.

Qurilish korxonalarida tovarlar va hujjatlarning aylanish davri: an'anaviy va raqamlı iqtisod (1-jadval).

T.r	Tovarlar va xizmatlar nomi va aylanishi	An'anaviy iqtisod davri	Aralash davr	Raqamlı iqtisod davri
1.	Hujjatlarni tayyorlash bosqichlari	Qo'l yozma shaklida kitoblarda qayd qilish.	Qo'lda va kompyuterlarda.	Kompyuterlarda tayyorlash.
2.	Qurilish loyihalarini tayyorlash va tadbiq etish	Loyihalarni qo'lda bajarish, tayyorlash va tahrirlash.	Qo'lda va kompyuterlarda.	Loyihalarni kompyuterda tayyorlash va tahrirlash
3.	Xodimlarning ish haqlarini to'lab berish va tarqatish.	Kassalarda navbatlar asosida naqd shakllarda	Kompyuterlarda tayyorlash qo'lda tarqatish	Kartochkalarga o'tkazish yo'li bilan
4.	Qurilish korxonasida beton ishlarini bajarish.	Betonlar qo'lda qoriladi va quyiladi	Qolda va avtomatlashtirish yo'li bilan.	Beton ishlarini 3D printerlar bajaradi.
5.	Qurilish korxonalarida boshqaruv ishlarining bajarilishi.	An'anaviy yig'ilishlar va pochta boshqaruvi shaklida.	Qo'lda va AIJ lar yordamida.	Xizmatlar va to'lovlar onlain shakllarda. Mobillashuvning rivojlanishi.



1-shakl

2-shakl

Ushbu 1- va 2- shakllardagi iqtisodiyot davrlarining o'sish dinamikasini qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida qayd etilgan 5 ta davr ichida insonlar qo'l mehnatining avtomatlashgav tizimlar o'rni bilan almashinib borishining guvohi bo'lamiz. Bu jarayonlarning o'rni almashinishi jarayonlari bevosita AKT larning uzluksiz rivojlanishi, axborotlashga jamiyat sari dadil odimlashlari va axborotning tijorat shohasidagi qimmatli o'rni bilan chambarchas bog'liqidir.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va "qora iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrraydi, xotirasida saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotlarni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi [3].

Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llini tanlanganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, electron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo'naliishlar ochib beradi [1]. "Raqamli texnologiyalar" tomon burilishga butun jahon internet tarmog'i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo'ldi. Raqamli iqtisodiyotning oddiy iqtisodiyotdan farqini quyidagi bir misol bilan ifodalashimiz mumkin. Masalan, sizga ko'ylik kerak. Uni bozorga tushib Siz bevosita tanla-sangiz va naqd pulga sotib olsangiz, bu an'anaviy iqtisod. Telegramdagi biron savdo boti orqali o'zigizga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni electron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish – raqamli iqtisodiyotni ifodalaydi. Umuman olganda, hammamiz allaqachon raqamli iqtiso-diyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalananib rtlmoqdamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, electron to'lov orqali kommunal xizmat-larga to'lov qilamiz, electron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul o'tkazamiz, uyga o'tirib taom buyurtma qilamiz va hokazolar.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash lozimki, Motsart "Kichik tungi serenada"ni yaratganida, u asrlar o'tib "klassik musiqa" deb nomlanishini bilmas edi. Biz hozir "raqamli iqtisodiyot" deb ataydigan narsa yarim asrdan keyin oddiygina "iqtisod" deb atalishi ham

mumkin. Shu o'rinda aytishimiz joizki, O'zbekiston Respublikasi hukumati uchun raqamli iqtisodiyot dasturini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish juda jiddiy masala hisoblanadi, chunki bu sohada ortda qolish jahon iqtisodiyoti yangi trendlarga muvofiq ravishda mamlakatni raqobatbardoshlikni yo'qotishga mahkum qiladi va uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keladi. Aynan davlat barcha manfaatdor tomonlar (davlat, hukumat organlari, biznes, fuqarolik jamiyatni va ilmiy-ta'lif jamiyatlar) vakillarini raqamli iqtisodiyotni yaratish va rivojlan-tirishga jalb qilgan holda raqamli iqtisodiyotni optimal boshqarish mexanizmini yaratishi lozim. Raqamli iqtisodiyot dasturi bir qancha yo'naliishlarning amalga oshirilishini ko'zda tutishi zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018dagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi
2. qarori
3. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.
4. Ayupov R.H., Baltabayeva G.R. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T.: [Fan va texnologiya](#), 2018, 172 bet.